

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
11-son qarori

2023-yil 19-iyul
soat 10:00

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 19-iyul kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Uzkiyoimpeks” MChJ tomonidan olinayotgan kreditga kafillik berishni ko‘rib chiqish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2023-yil 19-iyuldagi 01-08/1849-son xatida “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 1-, 2-bosqich investitsiya dasturi doirasida qurilish ishlari uchun Xitoy Xalq Respublikasining “EXIMBANK”dan kreditlar jalb qilinganligi va ushbu kreditlar majburiyatlarini 2023-yil 21-iyul kuni so‘ndirilishi belgilanganligi ma‘lum qilinib, jamiyat yagona aksiyadoridan 3,5 mln AQSh dollari miqdorida “Uzkiyoimpeks” MChJ tomonidan olinayotgan eksport oldi moliyalashtirish kreditiga “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ kafilligini olishga ruxsat berish so‘ralgan (*xat nusxasi ilova qilinadi*).

O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 59-moddasiga asosan Qonunning 8- va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolati doirasiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jamiyat yagona aksiyadori **qaror qiladi:**

1. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2023-yil 19-iyuldagi 01-08/1849-son xati ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 1-, 2-bosqich investitsiya dasturi doirasida qurilish ishlari uchun Xitoy Xalq Respublikasining “EXIMBANK”dan jalb qilingan kreditlar bo‘yicha majburiyatlarni so‘ndirish maqsadida “Uzkiyoimpeks” MChJga “O‘zsanoatqurilishbank” tomonidan ajratilayotgan 3,5 mln AQSh dollari miqdoridagi eksport oldi moliyalashtirish krediti uchun ta‘minot sifatida “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ kafilligini olishga ruxsat berilsin.

3. “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. (Zaripov) jamiyat tomonidan kafillik berilishi bilan bog‘liq hujjatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirsin.

Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.



T. Muxamedjanov